

**YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR O‘SISH  
TAMOILLARI. O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH  
BOSQICHLARI VA UNING IQTISODIY O‘SISHGA TA’SIRI**

**Sultonov Elbek**

*TDIU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada “yashil iqtisodiyot” tushunchasi, uning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatlarini tahlil qilinadi. “Yashil iqtisodiyot” tabiiy resurslarni samarali boshqarish, ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o’sishni barqarorlashtirishga qaratilgan tizim hisoblanib, uning asosiy maqsadi - atrof - muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy faoliyatni ekologik jihatdan toza tarzda olib borish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo’naltirilgan. Maqolada O‘zbekistonning yashil iqtisodiyotga o’tish tamoyillari, bu borada olib borilayotgan chora-tadbirlar va kelajakdagi istiqbollari xususida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Yashil iqtisodiyot”, barqaror rivojlanish, ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik texnologiyalar, yangi ish o‘rinlari, O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”.*

**Annotation:** *This article analyzes the concept of "green economy," focusing on its economic, ecological, and social aspects. A "green economy" is a system aimed at the efficient management of natural resources, ensuring ecological sustainability, and stabilizing economic growth. Its main objectives include protecting the environment, conducting economic activities in an ecologically clean manner, developing renewable energy sources, reducing waste, improving energy efficiency, and promoting the rational use of natural resources. The article discusses Uzbekistan's principles of transitioning to a green economy, the measures being taken in this regard, and the future prospects of this transition.*

**Keywords:** *“Green economy” , sustainable development, ecological sustainability, renewable energy, ecological technologies, new jobs, "green economy" in Uzbekistan.*

### Аннотация

*В данной статье анализируется концепция «зеленой экономики» с учетом ее экономических, экологических и социальных аспектов. «Зеленая экономика» — это система, направленная на эффективное управление природными ресурсами, обеспечение экологической устойчивости и стабилизацию экономического роста. Основные цели зеленой экономики включают защиту окружающей среды, экологически чистое ведение экономической деятельности, развитие возобновляемых источников энергии, сокращение отходов, повышение энергоэффективности и рациональное использование природных ресурсов. В статье рассматриваются принципы перехода Узбекистана к зеленой экономике, предпринимаемые меры в этой области и перспективы дальнейшего развития.*

**Ключевые слова:** «Зеленая экономика», устойчивое развитие, экологическая устойчивость, возобновляемая энергия, экологические технологии, новые рабочие места, «зеленая экономика» в Узбекистане.

### Kirish

XX asrda dunyoning tashqi qiyofasi sezilarli darajada o‘zgarib ketti. 1900-yilda dunyo aholisi 1.6 mlrd kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2000-yilda ushbu ko‘rsatkich 6 mlrd. kishidan oshdi. 2017-yilga kelib esa yer yuzasidagi aholi soni 7.6 mlrd kishini tashkil etmoqda. Aholining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi jahon bo‘yicha deyarli 2 marta oshib, kambag‘allik darajasi 3 martadan ko‘proqqa kamaydi. Fan-texnika borasida erishilayotgan yutuqlar ta’sirida iqtisodiy rivojlanish va aholi turmush darajasining keskin o‘sishi dunyo aholisi sonining jadal sur’atlarda ortishiga sabab bo‘ldi. Fan-texnika yutuqlari dunyo aholisi sonining o‘sish sur’atlariga nisbatan yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlab berdi. Jumladan, XX asr davomida dunyo aholisi 3.6 martaga o‘sgani holda, dunyo yalpi ichki mahsuloti 18 martadan ko‘proqqa ortgan. Tahlillar ko‘rsatishicha, dunyo aholisining ko‘payishi va iqtisodiy o‘sishning ortishi muntazam ravishda atrof-muhitga bo‘lgan yukning oshib borishiga olib keldi. So‘ngi yuz yillikdagi aholining soni va iqtisodiy faolligining oshishi hisobiga dunyo okeanining oksidlanish darajasi deyarli 1.2 martaga (2000-yilda 19000-yilga nisbatan) oshdi, tropik o‘rmonlarning yo‘qotilish darajasi 6 marta oshdi, uglerod oksidi chiqarilishi 1.5 martaga ko‘paydi. Dunyo aholisi iqtisodiy faolligining

oshishi natijasida yuz berayotgan bunday iqlim o‘zgarishlari o‘rta muddatli istiqbolda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) bo‘yicha agentlik fikriga ko‘ra, rivojlanish va ehtiyojlarni qondirish uchun sezilarli miqdordagi uglevodorodlarni talab etuvchi jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy sohaning joriy holati o‘zgartirilmasa, 2050-yilda 2030-yilga nisbatan insoniyat 5 mln kishini yo‘qotishi mumkin. Iqlim va global tabiiy tizimning o‘zgarishi inson hayotining barcha jihatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va mamlakatlar aholisi turmush darajasini yomonlashtiradi.

Jahon yalpi iste‘molining o‘sishi cheklangan resurslardan foydalanish muammosini keltirib chiqaradi. Resurslarning cheklanganligi, yer kurrasi va okeanda qancha miqdorda borligi ularga xos xususiyat hisoblanadi. Nazariy jihatdan mineral resurslar uzoq muddatli davrda intensiv ishlatish oqibatida tugashi mumkin. Yer kurrasida mavjud aksariyat resurslarning umumiy hajmi iste‘mol qilinayotganidan minglab, millionlab ko‘pdir. Qazib chiqarish hajmining ortishi natijasida xom ashyo zaxiralari miqdori kamayib bormoqda. Sanoat uchun ishlatilgan xomashyodan samarali, tejamkorlik bilan foydalanish va yangi konlarni qidirib topish resurslarni ko‘paytiradi. Jumladan, BP (Bi-Pi) transmilliy neft kompaniyasi ma‘lumotiga ko‘ra 2009-2019 – yillarda neft va tabiiy gazning aniqlangan zaxiralari o‘rtacha 1.2 martaga oshgan.

### 1-jadval

#### Jahon yoqilg‘i zaxiralarini aniqlash, qazib chiqarish va iste‘mol qilish<sup>95</sup>

|                             | 2009 y | 2019 y  |
|-----------------------------|--------|---------|
| <b>Aniqlangan zaxiralar</b> |        |         |
| Neft, mlrd. barrel          | 1531.8 | 1733.9  |
| Tabiiy gaz, trln.kub.metr   | 170.5  | 198.8   |
| Ko‘mir, mln. Tonna          | 928238 | 1069636 |
| <b>Qazib chiqarish</b>      |        |         |
| Neft, bir kunda ming barrel | 81578  | 95192   |

<sup>95</sup> Bp Statistical Review of World Energy 2020 ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

|                                      |        |            |
|--------------------------------------|--------|------------|
| Tabiiy gaz, mln.kub.metr             | 2934.9 | 3989.<br>3 |
| Ko‘mir, mln.tonna                    | 142.89 | 167.5<br>8 |
| <b>Iste‘mol</b>                      |        |            |
| Neft, bir kunda ming barrel          | 84083  | 9827<br>2  |
| Tabiiy gaz, mln.kub.metr             | 2941.1 | 3929.<br>2 |
| Ko‘mir, neft ekvivalentida mln.tonna | 144.3  | 157.8<br>6 |

Tabiiy resurslardan oqilona va barqaror foydalanmaslik natijasida kelib chiquvchi salbiy oqibatlarini bartaraf etish maqsadida rivojlanayotgan mintaqalar mamlakatlari o‘z ekologik tizimini, biologik xilma-xilligini va iqlimini yaxshilash uchun har yili 70-100 mlrd. AQSH dollaridan kam bo‘lmagan miqdorda investitsiya kiritishi kerak. Shu bilan birgalikda rivojlanayotgan mintaqalarning investitsion salohiyati ancha past ekanligini e‘tiborga olish zarur. Jalb qilinayotgan xorijiy investitsiyalar ushbu mintaqalar uchun strategik muhim bo‘lgan ( yer osti boyliklarini ishlab chiqarish va qayta ishlash ) sohalarga yo‘naltirilmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning milliy qonunchligi xo‘jalik sub’ektlarining ekologik yoki ijtimoiy javobgarligini ta‘minlamaydi. Tabiiy resurslarni ekspluatatsiya qilish borasidagi bunday agressiv yondashuv butun zamonaviy sivilizatsiya uchun jiddiy yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin.

Faoliyat samaradorligi past hamda xarajatlari yuqori bo‘lgan, atrof muhitga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatib, ko‘p resurs talab qiladigan iqtisodiyotning bunday modelini yengib o‘tish hozirgi davrning eng dolzarb muammolaridan biridir. Shundan kelib chiqib, bugungi kunda dunyoning aksariyat mamlakatlari atrof muhitni muhofaza qilish iqtisodiyot uchun yuk deb hisoblanadigan an’anaviy modeldan ekologiya rivojida dvigatel vazifasini o‘taydigan “yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tish yo‘lidan bormoqda. Yangi global yashil rivojlanish yo‘lini tanlash taraqqiyotning muhim yo‘llaridan bo‘lib, u jahon iqtisodiyoti va moliyaviy tizimi barqarorligi hamda insoniyat ravnaqini ta‘minlaydi. Yashil iqtisodiyot qayta tiklanuvchi, resurstejamkor,

kam chiqitli texnologiyalar keng qo‘llaniladigan, issiqxona gazlari past darajada chiqariladigan, atrof muhit uchun xavfi kamaytirilgan tabiiy resurslardan samarali foydalanishga asoslangan iqtisodiyotdir.

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shu sababli o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo‘llanilayotgan rag‘batlantiruvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat xaridlari “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, iqtisodiy tizimni yashillashtirish jarayoni yanada faollashadi.

Aksar mamlakatlar “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasida aniq maqsad va vazifalarni belgilab olishadi. Bu o‘rinda “yashil iqtisodiyot” ga o‘tishdan maqsad nima, degan savol tug‘iladi. BMT Yevropa iqtisodiy qo‘mitasi mutaxassislarining ta’kidlashicha, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishdan ko‘zlangan maqsad iqtisodiy tarmoqlari va ijtimoiy sohaga “yashil investitsiyalar” ni yo‘naltirishni rag‘batlantirishdan iborat. Ushbu investitsiyalar muhim iqtisodiy resurslar hisoblangan tabiiy kapital va ekotizimlardan nisbatan samarali usullar yordamida foydalanish yoki ularni tugab qolishi va degradatsiyalashuvi riski paydo bo‘lganda boshqa muqobil resurslar bilan almashtirishga yordam beradi. Investitsiyalar bir vaqtning o‘zida ijtimoiy adolat uchun sharoit yaratishi va fuqarolarga munosib ish o‘rinlarini yaratishi zarur. Atrof muhit muhofazasini kuchaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, ijtimoiy integratsiyani chuqurlashtirish, iqtisodiy rivojlanishni yaxshilash kabi vazifalar “yashil iqtisodiyot”ning vazifalariga kiradi.

“Yashil iqtisodiyot” ga o‘tish maqsadi va strategik vazifalari muayyan tamoyillarga asoslanishni taqozo etadi. “Yashil iqtisodiyot” ga o‘tish tamoyillari mazkur iqtisodiyot qanday bo‘lishi zarurligini belgilab beradi. “Yashil iqtisodiyot” tamoyillari “jigarrang iqtisodiyot” tamoyillariga nisbatan keng qamrovli bo‘lib, 1972-yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi.

Iqtisodiy adabiyotda xalqaro va milliy amaliyotda 2012-yilda UNEP boshqaruv kengashi “Yashil iqtisodiyot koalitsiyasi” tomonidan ishlab chiqilgan yashil iqtisodiyotga o‘tishning quyidagi tamoyillari keng tarqalgan.



**1-rasm. Yashil iqtisodiyot tamoyillari**

“Yashil iqtisodiyot” barqarorlikni ta’minlash vositasi hisoblanadi. U barqaror rivojlanish o‘rnini bosolmagan holda, uni ta’minlash usullaridan biri sanaladi. “Yashil iqtisodiyot” sog‘lom atrof muhitga bog‘liq va barcha uchun farovonlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bunday siyosat barqaror rivojlanishning barcha maqsadlarini (ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy) qamrab oladi va ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha ijobiy natijalarga erishish imkonini beruvchi strategiyalarni ishlab chiqaradi. Mamlakatlar va avlodlar o‘rtasida tenglik, adolatni qo‘llab-quvvatlaydi. U inson huquqlari, ma’daniy xilma-xillik, gender tenglikni ta’minlashga ko‘maklashadi, bilimlar, ko‘nikmalar, tajribalar va har bir insonning ushbu sohaga qo‘shgan hissasini tan oladi. Tub aholining yer, hudud va resurslarga bo‘lgan huquqlarni hurmat qiladi.

“Yashil iqtisodiyot” kambag‘allik darajasini pasaytiradi, barcha mamlakatlarda inson taraqqiyotining yuqori darajasiga erishish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanitariya, suv bilan ta’minlash, energiya va boshqa asosiy xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Yo‘qotilgan bio xilma-xillikni tiklashga yordam beradi, tabiiy tizimlarga investitsiyalar yo‘naltiradi. “Yashil iqtisodiyot” ekotizimlar va bio xila-xillikka



bevosita bog‘liq bo‘lib, ushbu iqtisodiyot ekologik talablardan chetga chiqmaslik va barchani mazkur talablar bo‘yicha hamkorlik qilishga undaydi.

Bunday iqtisodiyot tizimi amalda va istiqbolda investitsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi. U avlodlar o‘rtasida adolatni ta‘minlashga, resurslarni saqlab qolishga va uzoq muddatli davrda aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi. “Yashil iqtisodiyot” moliya sektorini tartibga solish va unga ta‘sir etish orqali iqtisodiyot sektorlari, “yashil texnologiyalar” ga investitsiyalar sarflashni rag‘batlantiradi, global pul tizimining barqarorligini ta‘minlaydi.

Ekologik resurslar va ekotizimlar jiddiy nazorat qilinishi va muhofaza etilishi zarur. Ekologik aktivlarning kelgusi avlod uchun qiymatini oshirish va shu tariqa ularning istiqboldagi ehtiyojlarini adolatli qondirishni ta‘minlash kerak.

Aynan shu maqsadlarda prezidentimiz 2021-yil 30-mayda “Yashil o‘shish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030” ikkinchi xalqaro sammitida “yashil transformatsiya” bo‘yicha bir qator asosiy yechimlarni ilgari surdi. 30-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning taklifiga binoan Seul shahrida videoanjuman shaklida o‘tayotgan “Yashil o‘shish va global maqsadlar uchun hamkorlik – 2030” ikkinchi xalqaro sammiti ishida ishtirok etdi. Ikki kunlik forum kun tartibidan iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yengib o‘tish, “yashil” tiklanish va uglerod neytralligini ta‘minlash, shuningdek, BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish va Iqlim bo‘yicha Parij bitimi qoidalarini bajarish masalalari o‘rin olgan edi. O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida “yashil” tiklanish sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangilanishlarning muhim yo‘nalishlarini qayd etdi hamda bu boradagi xalqaro hamkorlikning istiqbollari yuzasidan o‘z nuqtai nazarini bayon qildi. Davlatimiz rahbari “yashil” va barqaror taraqqiyotga xizmat qiladigan samarali qarorlar qabul qilish uchun butun xalqaro hamjamiyatning sa‘y-harakatlarini birlashtirish zarurligini alohida ta‘kidladi. Orol dengizi halokatining global oqibatlarini yengib o‘tish bu boradagi ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Shu munosabat bilan Prezidentimiz yaqinda O‘zbekiston tashabbusi bilan Orolbo‘yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi deb e‘lon qilish bo‘yicha qabul qilingan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasi to‘liq qo‘llab-quvvatlangani uchun barcha xalqaro hamkorlarga minnatdorlik bildirdi. Mazkur yo‘nalishdagi ishlarni, shu jumladan, maxsus tashkil etilgan BMT Trast jamg‘armasi, “Yashil”

o‘shish global instituti, “P4G” sheriklik platformasi va boshqa xalqaro institutlar doirasida birgalikda faol davom ettirish taklif etildi. Mintaqamizda iqlim o‘zgarishlari, bug‘lanish darajasini oshiruvchi gazlar va atmosfera ifloslanishi muammolari ta’sirida transchegaraviy daryolar oqimi va biologik xilma-xillik qisqarayotgani munosabati bilan jiddiy xavotir bildirildi. O‘zbekiston Parij bitimi doirasida 2030-yilga qadar parnik gazlarini atmosferaga chiqarishni qisqartirish bo‘yicha o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarishga sodiq ekani ta’kidlandi. Shu munosabat bilan “yashil” texnologiyalarni keng joriy qilish va “yashil” energetika sohasidagi loyihalarni amalga oshirish O‘zbekistonda yaqin o‘n yilda qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini 3 barobardan ziyodga ko‘paytirish imkonini berishi qayd etildi. 2022-yili O‘zbekistonda “Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun “yashil energetika” mavzusida xalqaro konferensiya o‘tkazish, shuningdek, “yashil” iste’mol madaniyatini shakllantirish maqsadida “yashil iqtisodiyot”ni barpo etishga yoshlarni jalb etish bo‘yicha maxsus dasturni amalga oshirish tashabbuslari ilgari surildi. Prezidentimiz ushbu muhim sohada amaliy hamkorlikni kengaytirish maqsadida O‘zbekiston «P4G» sherikligiga qo‘shilish hamda uning to‘laqonli ishtirokchisiga aylanishga tayyor ekanini bildirdi.

Xaqiqatda iqlimning keskin o‘zgarishi, suv resurslarining taqchilligi va ifloslanishi, ichimlik suvi sifati pasayishi, mintaqada suv oqimlari asosiy qismi hosil bo‘ladigan Pomir hamda Tyan-Shan tog‘larida muzliklar maydoni kamayishi, yerlarning ifloslanishi va tanazzulga uchrashi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, aholi sog‘lig‘i hamda genofondi holati yomonlashishi yuzga kelgan bir sharoitda davlatimiz raxbarining takliflari o‘ta muhim va hayotiy ahamiyatga ega. Ayni vaqtda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish, shu jumladan, Orol fojiasi salbiy oqibatlarini kamaytirish, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va ekologik jihatdan qayta tiklash nafaqat O‘zbekiston, balki butun Markaziy Osiyo uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Shunday sharoitda biz olib borayotgan islohotlar doirasida yurtimizning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tishi hamda barqaror rivojlanish maqsadlariga samarali erishish jarayonini tezlashtirishga qaratilgan masalalar ilgari surilib, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilab olinayotgan diqqatga sazovor. Orol dengizining qurigan havzasida iqlim o‘zgarishi boshqa mintaqalarga qaraganda ancha intensiv bo‘lib, dunyo iqlim o‘zgarishi ko‘rsatkichidan ikki marta ortiq ekanini aytish joiz. Aksincha, yilning issiq davrida kunduzgi harorat



oshib, havo nisbiy namligi kamaymoqda, shu bilan birga, harorati 40 darajadan yuqori bo‘lgan kunlarning soni ortib bormoqda.

Shu o‘rinda aytish kerakki, bugungi kunda Orolbo‘yida iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik holatni yaxshilash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Dengizning qurigan tubida faqatgina so‘nggi uch yil, ya‘ni 2018 yil dekabrda to 2021 yil mart oyigacha 1 million 700 ming gektar maydonda saksovul ekildi. Xo‘sh, bu qanday muhim masalalarni yechishga yordam beradi? Avvalo, atrof-muhit holati yumshashi uchun sharoit yaratadi va tabiiy resurslar tanazzulga uchrashining oldini oladi. Ayni chog‘da dengizning qurigan tubida qumni maksimal hajmda ushlab qolish ta‘minlanadi. Har xil yovvoyi hayvonlarning ko‘payishi va tarqalishi uchun esa qulay ekotizim shakllanadi.

2019-2030-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasining “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasining to‘rtta ustuvor yo‘nalishlari belgilangan bo‘lib, asosiy e‘tibor energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘zlashtirish, iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga moslasish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, “yashil iqtisodiyot” ni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilganligini kuzatish mumkin. Respublikamizda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish maqsadida 1 million gektargacha maydonda suv tejovchi sug‘orish texnologiyasini joriy etish, yiliga 200 million ko‘chat ekish va ko‘chatlarning umumiy sonini 1 milliarddan oshirish orqali shaharlardagi yashil maydonlarni 30 foizdan ortiqroqqa kengaytirish, o‘rmon fondi zaxiralari ko‘rsatkichini 90 million kub metrda ortiqroqqa etkazish ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat sohasida energiya samaradorligini kamida 20 foizga oshirish, yalpi ichki mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan energiya sarfi hajmini qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish hisobiga 30 foiz kamaytirish maqsadlari belgilanmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, “yashil iqtisodiyot” resurslardan samarali foydalanishning yangi iqtisodiy modeli bo‘lib, bu atrof-muhitni saqlash, iqtisodiy rivojlanishni barqarorlashtirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi, mamlakatlarga qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Shu tariqa, u nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni

ta'minlashga ham xizmat qilib, kelajak avlodlar uchun yaxshiroq yashash sharoitlarini yaratadi. Prezidentimizning 2022 yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur jarayonlarning mantiqiy davomi sifatida Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida ijrosini ta'minlash, "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejash yo'lidagi muhim tarixiy hujjat, desak mubolag'a bo'lmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Historical and Statistic World Economy. Maddison Project. (2015). [http://www.ggdcd.net/maddison/Historical\\_Statistics/horizontal-file\\_03-2007.xls](http://www.ggdcd.net/maddison/Historical_Statistics/horizontal-file_03-2007.xls)
2. UNEP.(2015), Publication UNEP. United Environment Program. <http://www.unep.org/climatechange/>.
3. Boriy Alixonov. ( 2021, 3 iyul ). Yashil iqtisodiyot-eng to'g'ri yechim. Xalq so'zi gazetasi.
4. <http://www.unece.org/sustainable-development/green-economy/what-are-the-main-purpose-and-related-objectives-of-green-economy.html>
5. Декларатция Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32. 2002-2013.
6. Mirziyoyev.Sh (2021 yil 30 may). "Yashil o'sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030" sammiti ma'ruzasi. [www.president.uz](http://www.president.uz).
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 - 2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PK-4477- sonli qarori 1-ilovasi.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga 1-ilova.